

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ  
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
SPECIAL ISSUE-3



# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES  
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**  
**Сеитов Азамат Пулатович**  
доктор социологических наук (DSc), профессор

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**  
**Сабирова Умида Фархадовна**  
доктор социологических наук (DSc)

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Бекмурадов Мансур Бобомурадович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Каланов Комил Куллахматович**  
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Убайдуллаева Раиса Турсуновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Негматова Шахзода Шухратовна**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайылдаева Асель Кокоевна**  
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

**Исмаилов Алишер Агзамович**  
доктор экономических наук, (Узбекистан)  
**Щепилова Галина Германовна**  
доктор философских наук, профессор (Россия)  
**Рожанский Михаил Яковлевич**  
кандидат философских наук (Россия)  
**Маматов Нормурат**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Бурнашев Рустам Ренатович**  
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Умаров Абсалом Адилевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Холбеков Абдугани Жуманазарович**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Акулич Мария Михайловна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

**Антонио Алонсо Марсос**  
доктор политических наук, профессор (Испания)  
**Фадеева Любовь Александровна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)  
**Виктор Агаджаньян**  
доктор философии по социологическим наукам,  
профессор (США)  
**Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Аликариев Нуритдин Сапаркариевич**  
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)  
**Матибаев Тасполат Балтабаевич**  
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)  
**Николов Стефан**  
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

**Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович**  
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)  
**Ли Ци**  
доктор исторических наук, профессор (Китай)  
**Сухомлинова Марина Валерьяновна**  
доктор социологических наук, профессор (Россия)

[www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz) решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.  
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.  
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

**Пармонов Фарход Ярашевич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич**  
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)  
**Алимухамедова Нодира Ядгаровна**  
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)  
**Каланова Сабохат Мурадovна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)

**Камалова Хатира Сабыровна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Тагиева Гулсум Гафуровна**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)  
**Ахмедова Феруза Медетовна**  
доктор философии по социологическим наукам (PhD)  
(Узбекистан)  
**Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна**  
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи  
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни  
Social structures, social institutions and way of life

**Аликариёва Аълохон Нуриддиновна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Зайтов Элёр Холмаматович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна**  
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

**Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна**  
доктор философии по социологическим наукам,  
доцент (Узбекистан)  
**Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович**  
доктор философии по социологическим наукам,  
и.о. профессор (Узбекистан)  
**Қаюмов Қахрамон Нозимжонович**  
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.  
Социология социального сознания и социального процесса.  
Sociology of social consciousness and social process

**Сеитова Зухрагон Пиржановна**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Доспанова Дилара Уракбаевна**  
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

**Каримов Бобир Шаропович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)  
**Якубов Ильдар Харрасович**  
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)  
**Абдухалилов Абдулло Абдухамитович**  
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

# МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

<b>1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин</b> РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
<b>2. Karimov Bobir</b> JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
<b>3. Mamatov Normurat</b> IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
<b>4. Rasulov Abdimumin</b> SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
<b>5. Xusanova Hayriniso</b> IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
<b>6. Abduxalilov Abdullo</b> NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
<b>7. Якубов Ильдар</b> КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
<b>8. Abdullayev Akmal</b> O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
<b>9. Хасанова Мавлюда</b> СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
<b>10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona</b> O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
<b>11. Алимухамедова Нодира</b> ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
<b>12. Tolipov Abdug‘affor</b> VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
<b>13. Berdimuratov Marat</b> YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104

<b>14. Хамиджонов Умиджон</b>	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
<b>15. Ixtiyarov Farxod</b>	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
<b>16. Хасанова Мавлюда</b>	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
<b>17. Radjabova Aziza</b>	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
<b>18. Kalanova Sabohat</b>	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
<b>19. Ixomjon Xudayarov</b>	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
<b>20. Tagaymuratova Gulchehra</b>	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
<b>21. Jabborov Jaxongir</b>	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
<b>22. Ixtiyarov Farxod</b>	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
<b>23. Xasanov Sharofidin</b>	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
<b>24. Nurulloev Shahriyor</b>	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
<b>25. Аликариев Нуриддин</b>	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
<b>26. Alikariyeva A'loxon</b>	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

## ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES


**Jiyanmuratova Gulnoz,**

O‘zbekiston Milliy universiteti dotsenti,  
sotsologiya fanlari boyicha falsafa doktori (PhD)  
e-mail: gulnozjiyanmuratova@gmail.com

**Urunboyeva Janona,**

O‘zbekiston Milliy universiteti  
“Sotsiologiya” yo‘nalishi 1-bosqich talabasi  
e-mail: janonaakmalovna@gmail.com

### O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099429>

#### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishga qaratilgan me‘yoriy-huquqiy asoslar tizimli tahlil qilingan. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta‘minlash bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasida ratifikatsiya qilingan Konvensiyalar, qabul qilingan qonunlar, Prezident Farmonlari, Qarorlar, davlat dasturlari hamda institutsional mexanizmlarning mazmun-mohiyati, tamoyil hamda yo‘nalishlari yoritib o‘tilgan. Shuningdek, gender tenglik siyosati, ayollarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki va fuqarolik jamiyati institutlari faoliyati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi baholangan. Tadqiqot natijalari O‘zbekiston Respublikasida ayollar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida me‘yoriy-huquqiy baza izchil rivojlanib borayotganligini va amaliyotda yana ham takomillashtirishni talab etuvchi jihatlar mavjudligini ko‘rsatadi.

**Kalit so‘zlar:** xotin-qizlar, ijtimoiy-siyosiy faollik, gender siyosati, gender tenglik, me‘yoriy-huquqiy asoslar, davlat siyosati, parlament, saylov tizimi, BMTTD, huquqiy himoya, ayollar huquqlari, fuqarolik jamiyati, xotin-qizlar qo‘mitasi, islohotlar, milliy strategiya.

**Жиянмуратова Гульноз,**

Доцент Национального университета Узбекистана,  
доктор философии (PhD) по социологическим наукам,  
e-mail: gulnozjiyanmuratova@gmail.com

**Урунбаева Джанона,**

Студентка 1-го курса направления “Социология”  
Национального университета Узбекистана,  
e-mail: janonaakmalovna@gmail.com

### НОРМАТИВНО-ПРАВОВАЯ БАЗА РЕФОРМ, НАПРАВЛЕННЫХ НА ПОВЫШЕНИЕ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН

**АННОТАЦИЯ**

В данной статье проведен системный анализ нормативно-правовой базы, направленной на повышение социально-политической активности женщин в Республике Узбекистан. Выделены содержание, принципы и направления ратифицированных в Республике Узбекистан Конвенций, принятых законов, указов Президента, постановлений, государственных программ и институциональных механизмов обеспечения прав и интересов женщин. Также оценивается эффективность реформ, проводимых в рамках политики гендерного равенства, участия женщин в государственном управлении и деятельности институтов гражданского общества. Результаты исследования показывают, что нормативно-правовая база для повышения социально-политической активности женщин в Республике Узбекистан последовательно развивается, но существуют аспекты, требующие дальнейшего совершенствования на практике.

**Ключевые слова:** женщины, общественно-политическая активность, гендерная политика, гендерное равенство, нормативно-правовая база, государственная политика, парламент, избирательная система, ПРООН, правовая защита, права женщин, гражданское общество, женский комитет, реформы, национальная стратегия.

**Zhiyanmuratova Gulnoz,**

Associate Professor, Doctor of Philosophy (PhD) in Sociology,  
National University of Uzbekistan,  
e-mail: gulnozjiyanmuratova@gmail.com

**Urunboyeva Janona,**

1st year student of the of the Sociology department,  
National University of Uzbekistan  
e-mail: janonaakmalovna@gmail.com

**LEGAL AND REGULATORY FRAMEWORK FOR REFORMS AIMED AT INCREASING  
THE SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN IN THE REPUBLIC OF  
UZBEKISTAN**

**ABSTRACT**

This article provides a systematic analysis of the legal framework aimed at increasing women's socio-political participation in the Republic of Uzbekistan. It highlights the content, principles, and areas of ratified conventions, laws, presidential decrees, regulations, state programs, and institutional mechanisms for ensuring women's rights and interests. It also assesses the effectiveness of reforms implemented within the framework of gender equality policies, women's participation in public administration, and civil society institutions. The study's findings demonstrate that the legal framework for increasing women's socio-political participation in the Republic of Uzbekistan is steadily evolving, but there are still aspects requiring further practical improvement.

**Keywords:** women, socio-political activity, gender policy, gender equality, legal framework, public policy, parliament, electoral system, UNDP, legal protection, women's rights, civil society, women's committee, reforms, national strategy.

**KIRISH**

O'zbekiston Respublikasida ayollarning ijtimoiy-siyosiy ishtirokini oshirish masalasi 2017-yildan beri amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar jarayonida davlat siyosatining ustuvor yo'nalishi sifatida izchil rivojlanib kelmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyev 2022-yil Xalqaro kongress markazida 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag'ishlangan bayram tadbiridagi nutqida ta'kidlaganidek: “Xotin-qizlar va oila masalasi – bu nafaqat bugungi kunimiz, balki ertangi kelajagimizni ham belgilab beradigan hal qiluvchi omildir. Agar biz mehr-oqibat va sadoqat timsoli, xonadonlarimiz farishtasi bo'lgan ayollarga bitta yaxshilik qilsak, hech shubhasiz, bu o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi” [1]. Umuman olganda, mamlakatda ayollarning huquqlari, imkoniyatlari va ijtimoiy-

siyosiy ishtirokini mustahkamlashga qaratilgan me'yoriy-huquqiy baza juda keng qamrovli bo'lib, Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasiga murojaat qilganigan bo'lsak, unda mustaqillikka erishilgan kundan boshlab xotin-qizlar masalasida qabul qilingan 100 dan ortiq hujjatlarning, jumladan, 3 ta Konvensiya ratifikatsiya qilinganligi, 3 ta Qonun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13 ta Farmonlari va 12 ta Qarorlari qabul qilinganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi [2].

Masalan, O'zbekiston Respublikasida 1995-yilda BMTning "Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi [3], 1997-yilda "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risida"gi [4] va "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risida"gi [5] Konvensiyalari ratifikatsiya qilingan.

Turli yillarda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining 760-I-son "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi (1999) [6], O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi (2019) [7], O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi (2019) [8] Qonunlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining amaldagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2020) [9], PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022) [10], PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2022) [11], PF-208-son "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2023) [12], PF-240-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2025) [13] Farmonlari shular jumlasidandir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2021) [14], PQ-146-son "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi (2022) [15], PQ-401-son "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi (2023) [16], PQ-103-son "Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi (2025) [17] qarorlari bevosita xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish masalasiga daxldor me'yoriy-huquqiy baza hisoblanadi.

Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining KQ-311/1-IV-son "Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasini tashkil etish to'g'risida"gi (2022) [18], KQ-697-IV-son "Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish masalalari haqida"gi (2024) [19] qarorlarini eslab o'tish joiz hisoblanadi.

## **METODOLOGIYA**

Tadqiqotda quyidagi metodologik yondashuvlar va usullar qo'llanildi:

Hujjatlar tahlili, ya'ni O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillaridan boshlab xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini va rolini oshirish masalalariga daxldor 1991-2025-yillar oralig'ida qabul qilingan qonunlar, farmonlar, qarorlar, milliy strategiyalar, davriy davlat dasturlari kabi huquqiy-me'yoriy asoslar tizimli o'rganildi. Ushbu jarayon huquqiy me'yorlarning umumiy kontekstini, ularning qo'llanilish doirasini, mazmunini va gender nuqtai nazaridan talqinini tavsifladi hamda ijtimoiy-siyosiy faollikni rag'batlantirish mexanizmlari, kvotalar, ishtirok, zo'rvonlikdan himoya qilish va gender tengligi shartlari kabi qonunchilik elementlarini aniqladi.

Sintetik-analitik usul orqali me'yoriy-huquqiy tahlillar va statistik ma'lumotlar orqali olingan natijalar umumlashtirildi. Ushbu usul davlat siyosatining me'yoriy-huquqiy asoslari va uni amalga oshirishning amaldagi jarayoni o'rtasidagi farqlar, muammolar va potentsial islohot yo'llarini aniqladi.

Qiyosiy tahlil va prognozlash usuli yordamida asosiy natijalar, ijtimoiy-siyosiy va huquqiy tendensiyalar, gender siyosatini rivojlantirishning kelajakdagi yo'llari, ayollar ishtirokini oshirish

mexanizmlari va davlat, jamiyat va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik konsepsiyalari asosida taklif etildi.

### ASOSIY QISM

Mamlakatimizda ayol qadrini yuksaltirish borasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar, albatta, bu borada huquqiy asoslar yaratilganligi va muntazam takomillashtirib borilayotganligi bilan hal qiluvchi ahamiyatga egadir. Xususan, O'zbekiston Respublikasi yangilangan Konstitutsiyasining 58-moddasiga ko'ra, "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin-qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davlat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi" [20].

O'zbekiston Respublikasida mustaqillikdan keyingi davrda ayollarning jamiyatdagi mavqeini mustahkamlash maqsadida amalga oshirilgan ijtimoiy-siyosiy islohotlar jarayonini ikki davr, ya'ni 1991-2016-yillardagi va 2017-yildan keyingi davrlar kesimida alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Birinchi davrga e'tibor qaratsak, unda ayollarni davlat va jamoat boshqaruvi, siyosiy partiyalar, parlament, mahalliy kengashlar, nodavlat tashkilotlar, ta'lim, sog'liqni saqlash va tadbirkorlikka jalb qilish bo'yicha ko'rilgan chora-tadbirlar yillar davomida sezilarli natijalar berganligini ko'rish mumkin. Bu yutuqlar, avvalo, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatining puxta rejalashtirilgani va bosqichma-bosqich amalga oshirilganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat dasturi" (1999), "Gender tengligi bo'yicha milliy harakatlar dasturi" (2004), "Erkaklar va ayollarning teng huquqliligi kafolatlari to'g'risida"gi Qonun (2007) kabi hujjatlar, shuningdek, xalqaro konvensiyalar, xususan, CEDAW doirasidagi majburiyatlar mamlakatda gender siyosati uchun huquqiy asos yaratdi. Ushbu huquqiy asoslar ayollarning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirishda muhim rol o'ynadi.

Masalan, 1991-yilda siyosiy institutlarda ayollar ulushi atigi 6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilga kelib bu ko'rsatkich 16% ga yetgan. Siyosiy partiyalarning nomzodlar ro'yxatida ayollarning kamida 30% ini ishtirok etishini ta'minlash majburiyatining joriy etilishi ularning siyosiy vakilligini oshirishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Ayollarning faolligi mahalliy kengashlarda, mahalla tizimida va nodavlat tashkilotlarda ham oshdi. Ayollar tashkilotlari fuqarolik jamiyatining ajralmas qismi sifatida keng ko'lamda faoliyat yurita boshladi.

Ikkinchi davr, ya'ni 2017-yildan keyingi bugungi kungcha bo'lgan davrni tahlil qiladigan bo'lsak, hech qanday ortiqcha mubolag'alarsiz aytish mumkinki, ayollarga e'tibor chinakam davlat siyosati darajasiga ko'tarildi: uning huquqiy va institutsional asoslari tubdan yangilandi. Masalan, o'tgan 8 yillik nisbatan kichik muddat oralig'ida ayollarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash borasida 2 ta Qonun, Prezidentning 5 ta Farmoni va 12 ta Qarorlari qabul qilinganligi kuchli dalil bo'la oladi [2].

Shu o'rinda, Prezident Shavkat Mirziyoevning 2019-yil iyun oyida Oliy Majlis Senatidagi nutqidan iqtibos keltirish o'rinlidir: "Meni kishilarimizning ongida paydo bo'lgan stereotip ko'p o'ylantiradi. Odatda biz ayolni avvalambor ona, oila qo'rg'onining qo'riqchisi sifatida hurmat qilamiz. Bu, shubhasiz, to'g'ri. Ammo, bugun har bir ayol oddiy kuzatuvchi emas, balki mamlakatda amalga oshirilayotgan demokratik o'zgarishlarning faol va tashabbuskor ishtirokchisi ham bo'lishi kerak" [21].

Bir narsani tan olish kerak: ayollar xalqning dardini boshqalardan ko'ra chuqur his qiladi. Bu yil dekabr oyida Oliy Majlis va mahalliy kengashlarga bo'lib o'tadigan saylovlarda mehnatkash va oqila ayollarimiz qanchalik ko'p saylansa, bundan davlatimiz ham, jamiyatimiz ham faqat naf ko'radi

Mamlakatimizda 2019-yil xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash borasidagi qonunchilik bazasi takomillashuvida muhim tarixiy yil bo'lib qoldi. Ushbu yilda bir yo'la ikkita Qonun: O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'rvonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi [7] hamda 2-sentyabrda O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi [8] Qonunlar qabul qilindi. Ayniqsa, O'RQ-562-son Qonunning qabul qilinishi xotin-qizlar ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib, uning 3-bobi davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlasa, 4-bobi saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini aks

ettiradi. Uning 18-moddasiga ko'ra, "xotin-qizlar va erkaklar hokimiyat vakillik organlariga saylash va saylanishda teng huquqlarga ega", 19-moddasiga ko'ra esa, saylov komissiyalarini shakllantirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar ta'minlanadi [8].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 5-martdagi PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori [14] bilan Xotin-qizlarni va oilani qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi sifatida qayta tashkil etildi hamda xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar Rejasi ishlab chiqildi. Unga ko'ra, "I. Qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish" yo'nalishida har bir mahallada "Ayollar maslahat kengashi" jamoatchilik tuzilmasining faoliyatini samarali tashkil etish belgilandi.

Shuningdek, Rejaning "III. Xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi ishtirokini kengaytirish" yo'nalishida:

- respublikadagi oliy ta'lim muassasalari bakalavriat bosqichini muvaffaqiyatli tamomlagan, xorijiy mamlakatlarning nufuzli ta'lim, ilmiy yoki boshqa muassasalariga "El-yurt umidi" jamg'armasi stipendiyalari asosida o'qishga jo'natiladigan tinglovchilar orasidagi xotin-qizlarning ulushini kamida 20 foizga ko'paytirish;

- xotin-qizlarning jamiyat hayotidagi o'rnini mustahkamlash maqsadida zamonaviy ijtimoiy va siyosiy faol xotin-qizlarning milliy imijini keng targ'ib qilish;

- ayollarning jamiyatdagi muammolarini, jumladan turli kasb va ijtimoiy mavqega ega xotin-qizlar hayotini yoritib beruvchi milliy serial, badiiy, hujjatli, tarixiy, qisqa metrajli filmlar, ijtimoiy rolklarni suratga olish, teleloyihalar tayyorlash;

- xotin-qizlarga motivatsiya berish maqsadida fan, san'at, adabiyot, ishlab chiqarish sohasida hamda davlat va jamiyat faoliyatining boshqa tarmoqlarida katta amaliy tajribaga ega bo'lgan hamda alohida xizmat ko'rsatgan eng obro'li fuqarolar bilan uchrashuvlar tashkil etish va treninglar o'tkazib borish;

- "O'zbekiston xotin-qizlari: hayotiy maqsadlar, qadriyatlar va yo'nalishlar" mavzusida sotsiologik tadqiqot o'tkazish.

- Xotin-qizlarning muammolari, ehtiyojlari va qiziqishlarini o'rganish, tizimli tahlil qilish va muammolarni hal etish masalalarida tadqiqotlar samaradorligini oshirish.

- Fuqarolar yig'inlari raislarining oila, xotin-qizlar va ijtimoiy-ma'naviy masalalar bo'yicha o'rinbosarlari hamda oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha mutaxassislar uchun manzilli o'quv kurslarining onlayn platformasini yaratish kabi vazifalar belgilandi [14].

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2021-yil 28-maydagi SQ-297-IV-son Qarori bilan 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi qabul qilindi [22]. Unda qayd etilishicha, 2021-yil holatiga ko'ra, davlat va jamoat tashkilotlari tizimida 1300 nafardan ortiq, shu jumladan vazirlik va idoralarda 45 nafar, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi hamda Vazirlar Mahkamasida 39 nafar, mahalliy davlat hokimiyati organlarida 207 nafar ayol rahbarlik lavozimlarida faoliyat yuritgan.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari, Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi va xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga 2019-yilda bo'lib o'tgan saylovlarda ro'yxatdan o'tgan 21435000 nafar saylovchining qariyb 50%i yoki 10825641 nafari xotin-qizlardir. Ushbu saylovlarda ko'rsatilgan nomzodlarning 41%i xotin-qizlar bo'lib, ularning soni O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida belgilangan 30%lik kvotadan ortgan. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi deputatlarining 32%i, Senati a'zolarining hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, mahalliy Kengashlar deputatlarining qariyb 25%ini xotin-qizlar tashkil etgan [22].

O'zbekiston tarixida birinchi marta milliy parlamentda xotin-qizlar soni Birlashgan Millatlar Tashkilotining tavsiyalariga mos darajaga yetdi. Mamlakatimiz parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta milliy parlamentlar o'rtasida 37-o'ringa ko'tarildi [22].

Shuningdek, 2021-yil holatiga ko'ra, O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi va O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi a'zolarining 49%ini, O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi a'zolarining 46%ini, O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va O'zbekiston Ekologik partiya a'zolarining 4%ini xotin-qizlar tashkil qilgan [22].

Saylov huquqlarini amalga oshirishda xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash hamda davlat xizmati sohasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'minlash vazifalari ushbu Gender strategiyasini amalga oshirishning ustuvor yo'nalishlari qatoridan joy oldi. Bu vazifalarning ijrosi natijasida yuqori va quyi tizimdagi davlat organlarining rahbarlik lavozimlariga xotin-qizlarni tayinlash amaliyoti kengaytirilishi hamda siyosiy partiyalarni rag'batlantirish orqali xotin-qizlar saylov jarayonlariga keng jalb qilinishi kabi natijalarga erishish maqsadi qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-martdagi PF-81-son PQ-5020-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonida [10] gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish oila institutini mustahkamlash va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi va Respublikada oila va xotin-qizlarga oid davlat siyosatini yangi bosqichga olib chiqish, ularning muammolariga tizimli yechim topish, vakolatli organlar faoliyatini samarali tashkil etish va muvofiqlashtirish maqsadida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi tashkil etish vazifasi belgilandi. Natijada, 2022-yil 1-martdagi PQ-146-son "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori [15] bilan O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasining hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar va tuman (shahar) bo'linmalari va ularning tashkiliy tuzilmalari tasdiqlandi.

Senat Raisi Tanzila Narboeva boshchiligida dastlab Respublika xotin-qizlar jamoatchilik kengashi ish boshlagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2022-yil 4-martdagi KQ-311/1-IV-son qarori [18] bilan Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo'yicha respublika komissiyasi tashkil etildi. E'tiborli tomoni, komissiyaning maqomi va vakolatlari qonun darajasida belgilandi, uning asosiy vazifalari etib quyidagilar belgilandi:

- xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, xotin-qizlar va erkaklar o'rtasida gender tenglikka erishish, oilani mustahkamlash, onalik, otalik va bolalikni muhofaza qilishga qaratilgan davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etish;

- jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklarning haqiqiy tengligiga erishish, davlatning rahbarlik lavozimlariga ilgari surish chog'ida jins bo'yicha kamsitishga yo'l qo'ymaslik prinsipini ta'minlashga ko'maklashish;

- gender tenglikni, xotin-qizlar huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan qonunchilik hujjatlari ijrosi ustidan tizimli nazoratini amalga oshirish;

- gender tenglikni, xotin-qizlar huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash borasidagi ishlarning amaldagi holatini o'rganish, mavjud muammolarni tanqidiy tahlil qilish va ularni bartaraf etish bo'yicha choralar ko'rish;

- xotin-qizlarni ijtimoiy-huquqiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, xotin-qizlarning erkaklar bilan teng ravishda ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

- davlat organlarining, jamiyat hayotining barcha sohalarida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarga erishishga qaratilgan faoliyatini muvofiqlashtirish;

- ayollar huquqlari kamsitilishining barcha shakllariga barham berish bo'yicha umume'tirof etilgan xalqaro normalarni milliy qonunchilik hujjatlariga implementatsiya qilish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

- onalik, otalik va bolalikni himoya qilish tizimini takomillashtirish, oilaning jamiyatdagi o'rnini yanada oshirish va mustahkamlashga qaratilgan takliflar ishlab chiqish;

- oilaviy ajrimlar holatini tahlil qilish va ularning oldini olish ishlarida ishtirok etish, bu borada tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish;
- oilaning tibbiy madaniyati darajasini oshirish, sogʻlom turmush tarzini joriy qilishga koʻmaklashish;
- xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari sohasidagi xalqaro tashkilotlar, xorijiy mamlakatlarning tegishli organlari bilan hamkorlikni amalga oshirish [18].

Shuni qayd etib oʻtish joizki, 2022-yil xotin-qizlarga oid islohotlarga boy yil hisoblanadi, chunki qisqagina muddatda, yaʼni shu yilning 7-mart kunida Prezident Sh.M.Mirziyoevning yana bir – PF-87-son “Oila va xotin-qizlarni tizimli qoʻllab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Farmoni [11] eʼlon qilinadi. Unda mamlakatda xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish, sogʻligʻini saqlash, kasbga oʻqitish va bandligini taʼminlash, tadbirkorlikka keng jalb etish, ehtiyojmand xotin-qizlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash, gender tenglikni taʼminlash borasida olib borilayotgan islohotlarni tizimli davom ettirish, shuningdek, BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlarini izchil amalga oshirish maqsadida 2022-2026-yillarda xotin-qizlarning mamlakat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy hayotining barcha jabhalarida faolligini oshirish boʻyicha Milliy dastur tasdiqlanadi. Ushbu dasturning “II. Xotin-qizlarning iqtisodiy, ijtimoiy va siyosiy faolligini oshirish” yoʻnalishining “2.3. Davlat va jamiyat boshqaruvida ayollarning oʻrni va mavqeini yanada mustahkamlash” bandida quyidagi vazifalar alohida belgilanadi:

- davlat boshqaruvining turli sohalarida faoliyat olib borayotgan faol xotin-qizlarning kasbiy va intellektual salohiyatini oshirish, ularni rahbarlikka tayyorlash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasi tizimida qisqa muddatli oʻquvlarni tashkil etish;
- “Rahbar ayollar maktabi” oʻquv dasturini ishlab chiqish va amalga oshirish;
- davlat organlari va tashkilotlarida yagona kadrlar boʻlinmalari reytingini yuritish, gender tenglik hamda xotin-qizlar uchun shart-sharoitlar yaratilganligini baholash;
- ilm-fan sohasida xotin-qizlardan rahbar kadrlarni tayyorlash va rahbarlikka tayinlash;
- xorijdagi vatandoshlardan iborat “Oʻzbekistonlik vatandosh xotin-qizlar kengashi”ni tashkil qilish;
- respublika va hududlarda «Etakchi ayollar muloqoti» platformasini tashkil etish choralari koʻrish;
- “Oʻzbekiston taraqqiyotida parlamentdagi ayollar roli” mavzusida anʼanaviy ayollar forumini tashkil etish;
- davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etayotgan ibratli, faol xotin-qizlarni aniqlash, ularning faoliyatini keng targʻib etish maqsadida “Yil ayoli” milliy tanlovini oʻtkazish;
- gender tenglikni taʼminlash sohasida idora va tashkilotlarning ilgʻor tajribasini aniqlash maqsadida “Gender tenglik faoli” milliy tanlovini oʻtkazish;
- oila va xotin-qizlar masalalari bilan shugʻullanuvchi nodavlat notijorat tashkilotlari forumini tashkil etish;
- vazirlik va idoralar, xoʻjalik birlashmalari va taʼlim muassasalarida xotin-qizlar masalalari boʻyicha maslahat kengashlarini tashkil etish;
- Oʻzbekiston tarixida chuqur iz qoldirgan maʼrifatparvar ayollarning ibratli hayot yoʻlini targʻib etish maqsadida ularning yubiley sanalarini keng nishonlash choralari koʻrish;
- Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasining magistraturasiga nomzodlarni tavsiya etishda xotin-qizlarning sonini magistraturada oʻqishga tavsiya etilgan nomzodlar umumiy sonining 30 foizigacha yetkazish;
- Parlamentlararo ittifoq bilan hamkorlikda Oʻzbekistonda parlamentlar ayol-spikerlari Global sammitini tashkil etish;
- “Xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash boʻyicha Oʻzbekiston tajribasi” mavzusida xalqaro ayollar forumini oʻtkazish;

– o‘zbek milliy liboslariga mehr uyg‘otish va ommalashtirish, kiyim va kiyinish madaniyatini yuksaltirish, milliy moda sanoati uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish [11].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PF-208-son “Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonida [12] mamlakatimizda so‘nggi yillarda oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini hamda bandligini oshirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish, gender tengligini ta‘minlash borasida keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilgan erishilgan yutuqlar qatorida xotin-qizlarning rahbar lavozimlardagi ulushi 35 foizga yetganligi, lekin buni oshirish muammosi ko‘ndalang turganligi qayd etildi. Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash sohasidagi vazirlik va idoralar hamda nodavlat tashkilotlari o‘zaro hamkorlikda faoliyat yuritishlariga ko‘maklashish, Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi quyi tashkilotlarining joylarda ishini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yish maqsadida Oila va xotin-qizlar qo‘mitasining bo‘ysunuvi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligidan Vazirlar Mahkamasiga o‘tkazildi va uning yangi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.

Ushbu Farmonning ijrosini ta‘minlash hamda xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va ularning faolligini oshirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 21-dekabrda PQ-401-son Qarori bilan xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi hamda Vazirlar Mahkamasi barcha bo‘g‘indagi har bir davlat organi, tashkiloti va korxonasida, shu jumladan mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organi, sud tizimida va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda boshqaruv xodimlari orasidagi xotin-qizlarning ulushini 2030-yilga qadar 30 %ga yetkazish talabi davlat korxonalarining ijro organlari, shu jumladan direktorlar kengashi va kuzatuv kengashlarining tarkibini shakllantirishda ham tatbiq etilishini ta‘minlash vazifasi yuklatildi [16].

Shuningdek, ushbu Qaror bilan Oilalarni mustahkamlash, xotin-qizlarning qonuniy manfaatlarini ro‘yobga chiqarish, ijtimoiy-siyosiy faolligini va bandligini oshirish, tadbirkorlik ko‘nikmalarini shakllantirish hamda teng huquqliligini ta‘minlash bo‘yicha “Yo‘l xaritasi” tasdiqlandi. Ushbu Yo‘l xaritasining 2-yo‘nalishi xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, huquqlarini himoya qilish va qonuniy manfaatlarini ifodalash, erkaklar va xotin-qizlar uchun teng huquq va imkoniyatlarni ta‘minlash vazifalarini o‘zida jamladi.

Joriy 2025-yil ham mamlakatimizda xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlarini oshirish, jamiyat hayotiga keng jalb qilishning me‘yoriy va institutsional asoslarini ishlab chiqishda muhim voqealarga boy bo‘ldi, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martda PQ-103-son “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [17] hamda 2025-yil 3-dekabrda PF-240-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi [13] Farmoni shular jumlasidandir.

## XULOSA

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi qonunchilik va strategiyalar tomonidan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi sifatida samarali qo‘llab-quvvatlanadi. Ayollar, ayniqsa, ijtimoiy sohalarda – ta‘lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat va ijtimoiy xizmatlarda yetakchi kuchga aylaniб улгупди. Biroq, rahbariyat darajasidagi ishtirok nisbatan sustligicha qolmoqda. Bundan tashqari, iqtisodiy sohalarda, ayniqsa, yirik biznes va davlat korxonalarida ayollarning ulushi бипоз pastligicha qolmoqda. Gender stereotiplarining saqlanib qolishi, erta nikohlar va mehnat bozorida tengsizlik dolzarb muammolar bo‘lib qolmoqda. Shunga qaramay, davlat tomonidan ko‘rsatilayotgan siyosiy qo‘llab-quvvatlash, ayollar salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun yaratilgan imkoniyatlar, huquqiy islohotlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan dasturlar ayollar faolligining o‘shishiga hissa qo‘shmoqda.

Ayollar nafaqat ijtimoiy hayotning muhim ishtirokchisi, balki siyosiy qarorlar qabul qilish maydonida ham faol o‘rin egallaydi. Bu mamlakatda demokratik institutlarni takomillashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Kelajakda gender tengligini ta‘minlash, ayollarni siyosiy yetakchilikka tayyorlash, ularning iqtisodiy erkinligini kengaytirish va madaniy va diniy stereotiplarni bartaraf etish bo‘yicha tizimli va ilmiy asoslangan chora-tadbirlarni kuchaytirish

zarur. Shunga asoslanib, O'zbekistonda gender siyosati sohasida boshlangan islohotlar barqaror rivojlanish va inson huquqlarini to'liq amalga oshirish uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi.

### Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. Shavkat Mirziyoyev: Ayollarga bitta yaxshilik qilsak, o'nta yaxshilik bo'lib qaytadi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/5035>
2. Lex.uz – O'zbekiston Respublikasi qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/uz/>
3. Xotin-qizlarni kamsitishining barcha shakllariga barham berish to'g'risida"gi Konvensiya. URL: <https://lex.uz/docs/-2685528>
4. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 30.08.1997-yildagi 493-I-son "Bir xil qiymatga ega bo'lgan mehnat uchun erkaklar va xotin-qizlarni teng rag'batlantirish to'g'risida"gi Konvensiyani ratifikatsiya qilish haqida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-2736286>
5. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 30.08.1997-yildagi 501-I-son "Xotin-qizlarning siyosiy huquqlari to'g'risidagi konvensiyaga qo'shilish haqida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-86886>
6. O'zbekiston Respublikasining 14.04.1999-yildagi 760-I-son "Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-10550>
7. O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019-yildagi O'RQ-561-son "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/acts/-4494709>
8. O'zbekiston Respublikasining 02.09.2019-yildagi O'RQ-562-son "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/-4494849>
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 18.02.2020 yildagi PF-5938-son "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/ru/docs/-4740345>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022 yildagi PF-81-son "Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5884143>
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 07.03.2022 yildagi PF-87-son "Oila va xotin-qizlarni tizimli qo'llab-quvvatlashga doir ishlarni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5899498>
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PF-208-son "Oila va xotin-qizlar qo'mitasining faoliyatini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6704824>
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 03.12.2025 yildagi PF-240-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlashga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/en/docs/-7878175>
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.03.2021-yildagi PQ-5020-son "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-5320582>
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 01.03.2022 yildagi PQ-146-son "Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-5884084>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 21.12.2023 yildagi PQ-401-son "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-6704819>

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 14.03.2025 yildagi PQ-103-son “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/uz/docs/-7433397>

18. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 04.03.2022 yildagi KQ-311/1-IV-son “Xotin-qizlarning jamiyatdagi rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/en/docs/-5949556>

19. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 27.02.2024 yildagi KQ-697-IV-son “Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada kuchaytirish masalalari haqida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-6824751>

20. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.

21. Prezident ishtirokida Oliy Majlis Senatining yalpi majlisi bo‘lib o‘tdi. URL: <https://president.uz/oz/lists/view/2675>

22. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 28.05.2021 yildagi SQ-297-IV-son “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida”gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/-5466673>

# ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

**Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
ООО Тадқиқот город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000

**Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)**  
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000